

**JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN YOSH AVLODNI  
MA'NAVIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH**

Berdiyorova Sh. O'qituvchi

Baratova Yulduz JDPI Pedagogika  
nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2  
bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazish, ma'naviy yot g'oyalar ta'siridan sog'lom mafkuraviy immunitetni hosil qildirish va shu jumladan sog'lom ma'naviy dunyoqarashni shakllantirish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar.** ma'naviyat, ma'rifat, jaholat, intellektual salohiyat, dunyoqarash, professional shaxs, g'oyaviy immunitet, globallashuv, madaniyat

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekistonning eng yangi innovatsion faoliyati davlat tomonidan samarali va izchil amalga oshirilayotgan har bir sohasi xorij tajribasi hamda ta'lim sohasidagi muhitni yaratilishi insonga yanada kuch va shijoat baxshida etadi. Zamon taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir vaqtda, ta'lim sohasidagi tub o'zgarishlar ham, ilm sari shahdam qadam tashlamoq uchun kishiga kuch baxshida etadi go'yo.

Bugun biz tez suratlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashayapmiz. Hozirgi paytda yer yuzida qanday voqealar yuz bermasin, odamzod bu haqda zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotgan bir paytda mamlakatimizda tinchlik, barqarorlik hukum surmoqda. Bu esa xalqimiz ma'naviyatini, madaniyatini boyitishga berayotgan yuksak e'tiborning samarasidir.

Yurtimizda o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar etib voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki murakkab va tahlikali

zamonda milliy qadryatlarimizga yot g'oyalar, yoshlarning ongi va qalbini egallashga qaratilgan g'arazli xurujlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday vaziyatlarda ma'rifatning inson hayotida turli g'oyalarga qarshi immunitet hosil qiluvchi eng muhim vosita ekanligi yanada o'z isbotini topib bormoqda. Butun dunyo taniydigan shoirlarimizning she'rlarida, bastakorlarimizning kuylarida vatan madhi yangraydi. Ammo, shu go'zallikni ko'rolmaydigan nopl, manqurt, jaholatli kimsalar mavjud. Yurtimizning chiroyini ko'ra olmaydigan kimsalarni kim deyish mumkin? Buni juda yaxshi bilamiz, ular jaholatli kimsalar. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'rifi bilan aytganda: "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat" bilan bahsga kirishish, olishish mumkin. Xo'sh, ma'rifat nima-yu, jaholat nima?

Jaholat izohli lug'atimizda "Ilm, ma'rifatdan mahrumlik, qoloqlik, madaniyatsizlik, nodonlik, zulmat" deya talqin etilgan.

Ma'rifatga har qadamda jaholat to'siq bo'lishini hayotiy misollar orqali ham anglamoqdamiz. Demak, birinchi to'siq-jaholat. Jaholatga qarshi esa faqat ma'rifat bilan kurashish lozim. Ma'rifatga esa izohli lug'atimizda "Kishilarining ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya", deyilgan. Demak, jaholat ma'rifat bir-biriga qarama-qarshi, bir-birini siqib chiqaradigan tushunchalardir.

Ma'rifat insonni doimo to'g'ri yo'lga boshlaydi. Ma'rifat kimgadir ko'z-ko'z qilinadigan, ortida qandaydir ta'ma yashirin bo'lgan narsa emas. Jaholat kabi kuchlarga doim ma'rifat qarshi chiqqa oladi. Chunki, ma'rifat-to'g'ri yo'lga boshlovchi kuch. Ma'rifat-insonni ma'naviy kamolotga yetkazuvchi uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonidir. Har kim jaholat urug'ini quritishi lozim. Agar bu ongli ravishda har qanday xurujlarga qarshi o'zimizda "G'oyaviy immunitet hosil qila olsak hech qanday kuch bizni yenga olmaydi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo

miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” — deb ta'kidlaganlari bejiz emas

Bugun rivojlanayotgan davlatimizda jahon mamlakatlari mutaxassislari bilan bemalol raqobatlasha oladigan intellektual salohiyat egasi bo'lgan ijodiy fikrlovchi, ma'naviyati yuksak shaxslar zarurdir. Zero, ma'naviyati yuksak shaxs har xil oqimlarga qo'shilmaydi, aniqrog'i jaholat ta'siriga berilmaydi. Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir . Inson dunyoqarash asosida o'zini, voqelikni anglaydi, borliqqa munosabat bildiradi, shuning asosida jamiyatdagi o'z o'rnini bilib oladi, o'zlashtirilgan bilimlari asosida o'z maqsadini, shaxsiy va ijtimoiy mavqeini belgilaydi. Bu esa hozirgi demokratik jamiyatda kamol topayotgan shaxsga xos xususiyatning shakllanishi, unda insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ularni asrab-avaylash va takomillashib borishiga amaliy yordam berish ko'nikmalarini shakllanishi uchun zarur holdir. Inson hamisha dunyoning sir – sanoatlarini anglab yetishga intiladi. O'zicha nimalarnidir yaratadi, quradi, buzadi. Ularning mukammallik darajasi esa yaratuvchi inson ilmiga bog'liqdir.

Dunyoqarash tabiat, jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Tabiat va jamiyatdagi mavjud narsalarga, voqealarga,hodisalarga nazar tashlasak, ularning barchasida ajib mukammallik, mutanosiblik, latofat, nafislik mujassamlashganligining guvohi bo'lamiz, bularning barchasi insonni zavqlantirishga, unga orom va ma'naviy kuch baxsh etishiga sabab bo'ladi.Ijtimoiy taraqqiyot jarayoni har bir davr uchun o'ziga xos va o'ziga mos zamonaviy tafakkurga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalab, yangicha dunyoqarash asosida jamiyat rivojiga turtki beruvchi yoshlarni voyaga yetkazib beradi. Bu jarayonda xalqning istiqbolini yuqori cho'qqiga olib chiquvchi falsafiy dunyoqarash tizimida

estetik dunyoqarashning roli kuchli bo'lib, millat taqdiri, Vatan ravnaqi, yurt farovonligi yo'lida o'zgacha qiyofa kasb etuvchi davlatlar shakllanib boradi.

Jaholatga qarshi ma'rifat-inson bu dunyoning sir-asrorlarini yetarli darajada anglashi, o'zining kim ekanini bilishi va hayot mazmunini tushunishi kerak. Bugungi kunda buning yagona yo'li pofessional shaxs bo'lishi uchun o'z nafsiyi bilishi, kasb mahoratini egallashi va odam bo'lib yashash ko'nikmasini hosil qilish kerak. Bularning barchasi bir so'z bilan aytganda ma'rifat zamirida jo bo'lgan. Yurtimizda tinchlik va osoyishtalik yanada ta'minlash, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarning ongu tafakkurini diniy ekstremistik tajavuzlardan, turli yot g'oyalardan himoya qilish, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga xizmat qiladi. Bu borada barchamiz birdek harakat qilishimiz zarur. Dunyoni jaholat egallasa, nafaqat aql, balki aqlni peshlaydigan ma'rifat, ma'naviyat, hurfikrlilik, inson ozodligi barchabarchasi barham topadi. Mashhur faylasuflardan biri shunday aytib o'tgan: "Dushmaningdan qo'rhma-nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlaringdan qo'rhma-nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rqlar seni o'ldirmaydi, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzidan xiyonat va qotilliklar sodir bo'laveradi". Bu bebaho gaplardan ko'rinish turibdiki, har bittamiz vatanimiz rivoji, kelajagi uchun befarq bo'lmasligimiz va bu g'ayritabiyy kuchlarga biz o'z bilimimiz, milliy mafkuramiz bilan har doim, har soniya qarshi turmog'imiz lozim. Insonning insonligi, birinchi navbatda, uning ma'naviy axloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi

Kishilarning ma'naviy dunyosini boyitmasdan, ularda axloqiy onglilikni, milliy va umuminsoniy axloqiy fazilatlarni rivoj toptirmasdan turib ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jabhalardagi vazifalarni bajarish mumkin emas. yoxud odamlarda yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirmasdan turib, O'zbekistonning buyuk kelajagini ta'minlash mumkin emas.

Axloqiy onglilik ma'naviy madaniylilikning ajralmas qismidir. Axloqiy boylik ma'naviy boyliklarning o'ziga xos turi bo'lib, ijtimoiy turmush asosida shakllanadi. Axloqiy ongning bosh masalasi jamiyat bilan shaxsning o'zaro munosabati, shaxsiy va ijtimoiy ma'naviy tamoyillarning uyg'unlashuvi

masalasidir. Islom Karimov» «Aslini olganda axloq - ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alikdan iborat emas. Axloq - bu avvalo insof vaadolat tuyg'usi, iymon, halollik degani». SHuning uchun axloqiy dunyoqarash, axloqiy ong ham jamiyatga, ham alohida insonga xos ma'naviy barkamollikning ifodasidir.

Rivoyatlarning birida aytishicha, donishmanddan «Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima?» deb so'raganlarida u «Dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go'zal axloq, ta'lim-tarbiya, sa'y-harakat bo'lib, shu go'zal xislatlar bilan nom chiqarishdir.O'limdan ham battar yomon narsa esa tarbiyasizlik va yalqovlik bilan shuhrat qozonishdir» deb javob bergan ekan.

Biz komil inson tarbiyasini davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e'lon qilganmiz,- degan edi. Islom Karimov tarixchi olimlar bilan 1998 yilgi uchrashuvida. Komil inson deganda biz, avvalo, ongli yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab bo'lmaydilar. U har bir narsani aql, mantiq taroziga solib ko'radi. O'z fikr-o'yi, xulosasini mantiq asosida qurban kishi etuk odam bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugun biz hayot su'rati beqiyos darajada tezlashgan shunday zamonda yashayapmizki, insoniyat hozirga qadar bunday davrni boshdan kechirgan emas. Hozirgi zamonda mafkuraviy xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday xatarlarga qarshi doimo sergak , ogoh va hushyor bo'lishimiz zarur. Befarqlik, loqaydlik, e'tiborsizlik musulmon kishiga yot tushunchadir va shakllanib kelayotgan yosh avlod tarbiyasini to'g'ri yo'lga boshlab ham ma'naviy ham ma'rifiy tomondan ahloqli va odobli qilib shakllantirish zarur. Ularni ongida jamoaviy immunitetni shakllantirish zarur. Zero payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.) bunday marhamat qiladilar: "Alloh man qilgan narsalardan saqlanuvchi va uni tortinmay yuruvchining misoli xuddi bir jamoaga o'xshaydi, Ular kemani minishda qur'a tashlashadi. Ba'zilari hissasiga tepe qismi va ba'zilariga past qismi tushadi. Past qismidagilar suv olish uchun tepadagilar oldidan o'tadilar. (Bundan ozorlanib) «Agar biz suvdan o'z nasibamizni olish

uchun pastdan teshib olsak, tepamizdagilarga ozor bermas edik», deyishardi. Agar tepadagilar pastdagilar xohlagan narsani shundayicha qo'yib qo'ysalar, barchalari halok bo'lismadi. Agar ularni bu fikrlaridan to'xtatishsa, o'zlari ham, qolganlari ham najot topishadi”.

Maqola yakunida shuni aytish mumkinki, xushyor va ogoh bo'lib yashash hamda loqayd bo'lmasdan yashash bizning fuqarolik burchimiz bo'lishi bilan birga, muslimon sifatidagi diniy mas'uliyatimiz, har birimizning yelkamizdagi vazifamizdir. Shuning uchun doimo yon-atrofda sodir bo'layotgan voqeahodisalarga xushyorlik va ogohlik ko'zi bilan boqib, jamiyat oldidagi omonatimizni ado etib borishimiz lozim.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Mirziyoyev, Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: O'zbekiston, . 2017
2. I. A. Karimov "Yuksak-ma'naviyat yengilmas kuch" T. : "Ma'naviyat", 2008.
- 3.Odilov F. Axloqiy ong va ijtimoiy taraqqiyot. «Guliston», 1997,
- 4.O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" T. : Davlat ilmiy nashiryoti, 2003.
5. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. Mualliflar: O. Musurmonova, R. Qo'chiquorova, M. Qarshiboyev. T. : "Ma'naviyat", 2007.
- 6.Abdurasulov, R. (2022). ПСИХОЛОГИЯДА СПОРТЧИ ШАХСИ ХАРАКТЕРИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5110>
- 7.Rustam Abdurasulov, ШАХСНИ ШАКЛАНТИРИШДА ШАРҚ ЯККАКУРАШИ МАШФУЛОТЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ - ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании
- 8.Jumanova, N., & Abduvalieva, N. A. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARDА KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH. Журнал *Педагогики и психологии в современном*

- образовании*, 2(5). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5107>
- 9.Abdurasulov, R. (2022). ПСИХОЛОГИЯДА СПОРТЧИ ШАХСИ ХАРАКТЕРИ ШАКЛЛАНИШИНинг ЎРГАНИЛИШИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5109>
- 10.Abdurasulov, R. (2022). ПСИХОЛОГИЯДА СПОРТЧИ ФАОЛИЯТИДА МОТИВАЦИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5108>
- 11.Xamdamov, X. (2022). МНОГОЗНАЧИТЕЛЬНОСТЬ ОБУЧЕНИЯ ВОЕННОЙ ПСИХОЛОГИИ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5106>
- 12.Qodirova, M. (2022). O'SMIRLAR TARBIYASINING QIYINCHILIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(5). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5105>
- 13.Kamolova, S. (2022). ЁШЛАРНИ МАҶНАВИЙ БАРКАМОЛЛИК РУХИДА ТАРБИЯЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(6). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5191>
- 14.Shirin Kamolova, РАСПРОДЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ СТУДЕНТОВ, *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education*
- 15.Shirin Kamolova, САМОВОСПИТАНИЕ – ОСНОВА ФОРМИРОВАНИЯ ГАРМОНИЧНО – РАЗВИТОГО ПОКОЛЕНИЯ, *Журнал Педагогики и*

психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

16. Shirin Kamolova, ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2021): *Zamonaviy ta'limda pedagogika va psixologiya fanlari*
17. Shirin Kamolova, THE ROLE OF UNIVERSAL AND SCIENTIFIC VALUES IN THE SPIRITUAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании (октябрь)
18. Shirin Kamolova, ЎҚИТУВЧИ ПЕДАГОГИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: Том 2 № 5 (2022): Журнал педагогики и психологии в современном образовании (январь)
19. Shirin Kamolova, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАНИИ ЯВЛЯЕТСЯ ТРЕБОВАНИЕМ СЕГОДНЯШНЕГО ДНЯ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 2 (2021): Журнал педагогики и психологии в современном образовании (октябрь)
20. Shirin Kamolova, АВЕСТОДА АХЛОҶИЙ ИДЕАЛ ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ- ПСИХОЛОГИК КЎРИНИШЛАРИ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 3 (2021): *Zamonaviy ta'limda Pedagogika va psixologiya fanlari (Noyabr)*
21. Kamolova, S. (2022). ЁШ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШДА ТАРБИЯВИЙ ИШЛАРНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ . Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5571>
22. Karshibaeva Dilfuzra Burlievna (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. Евразийский Союз Ученых, (12-1 (81)), 4-5.

- 23.Karshibaeva, D., & Sattarova, F. (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. EurasianUnionScientists, 1(12 (81)), 4-5.
- 24.D.Qarshiboyeva.Improving Family Literacy Relationship depending on psychological education at school and family environment.  
<https://ijiemr.org/downloads/Volume-10/ISSUE-3>
- 25.Атамуродова Рохила Каршибоевна, Жуманова Насиба Шербоевна, & Алимкулов Сирожиддин Олимжон Угли (2016). Взгляды Авиценны о душе и разуме человека. *Academy*, (11 (14)), 72-73.
- 26.Toshpo'latova, N. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИНИНГ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИНИ ҲИСОБГА ОЛГАН ҲОЛДА ЁНДОШУВНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(3). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5617>
- 27.Karshibaeva Dilfuza Burlievna (2020). CRITICAL THINKING IN ADOLESCENTS. Евразийский Союз Ученых, (12-1 (81)), 4-5.
- 28.Burliyevna, K. D. (2022). THE WAYS OF INCREASING RELATIONSHIP BETWEEN HOME AND SCHOOL ENVIRONMENT IN CHILDREN'S PSYCHOLOGICAL DEVELOPMENT. ИЖТИМОЙ ФАНЛАРДА ИННОВАЦИЯ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 37-40.
- 29.Сиддикова, С. X., Каршибоева, Д. Б., Янгибоева, З. А., Очилова, М. Ш. К., Равшанова, А. Р., & Алимкулов, С. О. У. (2016). Экологическое образование как комплексная проблема современности. *Academy*, (6 (9)), 97-98.
- 30.Axmedova, N. (2022). BO'LAJAK TARBIYACHILARDA SOG'LOM TURMUSH TARZI VA MADANIY GIGIENIK KONIKMALAR KOMPITENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(7). извлечено от  
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5767>

- 31.Kamolova, S. U., Shakarbaeva, S. A., Yuldashev, S. A., & Ochilov, C. Q. (2020). The Essence Of The Content Of Enriching The Scientific Outlook Of Future Teachers. *Essence*, 29(8), 3593-3598.
- 32.Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
- Маджидов, Д. Б., & Шарофиддинов, А. (2017). Социальный интеллект как совокупность способностей, обеспечивающих адаптацию личности в обществе. In *Актуальные вопросы современной психологии* (pp. 22-24).
33. Majidov, J. (2021). СПОРТДАГИ МУЛОҚОТ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ҲОДИСА СИФАТИДА. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/723>
- 34.Majidov, J. (2021). ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА ЎЗАРО МУНОСАБАТЛАР КЕЧИШИНинг АЙРИМ ҲУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/724>
- 35.Majidov, J. (2021). ВОПРОСЫ ГАРМОНИИ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ МОЛОДЕЖИ О СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ И УДОВЛЕТВОРЕННОСТИ СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНЬЮ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1369>
- 36.Majidov, J. (2021). НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ЧУВСТВА ОДИНОЧЕСТВА В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/1375>
- 37.Majidov, J. B. (2020). Some characteristics of relationships in football teams. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(11), 1981-1988.

38.Majidov, J. (2021). KEKSALIK DAVRINING BIOLOGIK VA PSIXOLOGIK HUSUSIYATLARI. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (2). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/3074>

39.Jasur Majidov, СВОЕОБРАЗНОСТИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ В СИСТЕМЕ “ТРЕНЕР-СПОРТСМЕН” В ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ФУТБОЛЬНЫХ КЛУБАХ, Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: № 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education

40.Majidov, J. (2021). ШАХСГА ТИЗИМЛИ ЁНДАШИШДА ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, (3). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/4325>

41.Ж.Мажидов.ПРОФЕССИОНАЛ ФУТБОЛ ЖАМОАЛАРИДА “ТРЕНЕР – СПОРТЧИ” ТИЗИМИДАГИ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ <https://scienceweb.uz/publication/865>

42.Majidov, Jasur Baxtiyarovich (2022). SOTSIAL INTELLEKT VA UNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (2), 608-613.

43.Эшонкулова, X. (2022). ИҚТИДОРЛИЛИК МУАММОСИННИНГ ПСИХОЛОГИК ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(7). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5762>

44.Majidov, J. (2022). ЎСМИРЛИК ДАВРИГА ХОС СУИЦИДАЛ ХУЛҚНИНГ АЙРИМ САБАБЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(7). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/5766>

45.Majidov, J. (2021). ЁШЛАРНИНГ ОИЛАВИЙ ҲАЁТ ҲАҚИДАГИ ТАСАВВУРЛАРИ ВА ОИЛАВИЙ ҲАЁТДАН ҚОНИҚИШ УЙҒУНЛИГИ

МАСАЛАЛАРИ. Журнал *Педагогики и психологии в современном образовании*, 1(1).

- 46.Жасур, М. (2022). ГЕНДЕР УСТАНОВКАЛАРИ ВА ИЖТИМОЙЛАШУВ ЖАРАЁНИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 69-77.
- 47.Imomqulova, F. U. B., & Qarshiboyeva, D. B. (2022). KO 'P VA YOLG 'IZ FARZANDLI OILADAGI FARZANDLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINING O 'ZIGA XOSLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 4-2), 1142-1146.